

1920-1938-YILLARDA BUXORODA MAKTAB TA'LIMINING RIVOJLANISHI

Safarova Gulzoda Ismoilovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasи o‘qituvchisi Annotatsiya. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlарimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport bo‘yicha salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz” deb bekorga aytmadilar. Maqolada Buxorodagi XX asrning birinchi yarmida maktablarining tashkil topishi va rivojlanishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: jadid, yangi usul, mакtab, ma’rifatparvar, madaniyat, pedagogik fikr

РАЗВИТИЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРЕ В 1920-1938 ГГ.

*Сафарова Гульзода Исмаиловна
Бухарский государственный педагогический институт
преподаватель кафедры педагогики дошкольного
и начального образования*

Аннотация. Президент Ш. Мирзиёев сказал: «Мы считаем нашу здоровую и всесторонне развитую молодежь решающей силой в строительстве Нового Узбекистана. Для этого мы создадим новую систему реализации их потенциала в области знаний, культуры, искусства и спорта, а также поощрения предпринимательства. В статье представлены сведения о создании и развитии школ в Бухаре в первой половине XX века.

Ключевые слова: современность, новый метод, школа, просветитель, культура, педагогическая мысль.

DEVELOPMENT OF SCHOOL EDUCATION IN BUKHARA IN 1920-1938

Safarova Gulzoda Ismailovna

*Bukhara State Pedagogical Instituti
teacher of the Department of Pedagogy of Preschool and Primary
Education*

Annotation. President Sh. Mirziyoyev said: "We consider our healthy and comprehensively developed youth to be a decisive force in building the New Uzbekistan. To this end, we will create a new system for realizing their potential in the fields of knowledge, culture, art and sports, as well as encouraging entrepreneurship. The article provides information on the establishment and development of schools in Bukhara in the first half of the 20th century.

Keywords: modernity, new method, school, educator, culture, pedagogical thought.

Ma'lumki, Buxoro shahri asrlar davomida nafaqat Turkistonda, balki butun islom Sharqida yorqin ilm mash'ali vazifasini o'tab kelgan. So'nggi asrlarda bu yolqin birmuncha pastlagandek ko'rinsa-da, Buxoro madrasalari hamisha Turkistonning barcha bo'lgalaridan tashqari Hindiston-u Eron, arab diyorlari, uzoq tatar dashtlaridan kelgan talabalar bilan to'lib-toshgan edi. Garchi Turkiston siyosiy jihatdan uch davlatga bo'lingan bo'lsa-da, Buxoro o'zining ilm-ma'rifat poytaxti sifatidagi mavqeyini aslo yo'qotmadi...

20-yillarning birinchi yarmida maorif institatlari yuqori malakali maktab o'qituvchilari tayyorlash vazifasi bajardi. Ushbu oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich maktab va savodsizlikni tugatish maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlandi. 1923-yili O'zbekistonda 11 ta maorif instituti bo'lib, ularda 1900 talaba o'qir, ulardan 80% ishchi va dehqonlar edi. Keyinroq moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ular qayta tashkil etildi. 1924-yili jami 7 ta maorif instituti bo'lib, shundan beshtasi Toshkentda, Samarqand va Buxoroda bittadan edi.

Turkistondagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta'riflaydi: "Maktab shunday joydirki, bir muallimi bor, uni "maktabdor" deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o'n yilgacha zaruriy xat-savodlarini chiqargunga qadar

qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib, dars o‘qiy boshlaydilar¹

Turkistonda ilk bor yangi usul maktablari Buxoroda tashkil etilib taxminan 1900-1903 yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o‘qituvchilari tomonidan ilk yangi usul maktablari ochilgandi.

1920-yil 2-sentabrda Buxoroda amirlik tartibi ag‘darilganidan so‘ng (monarxiyaga qarshi tuntarish) dastlabki oylardanoq zamonaviy maorif tizimini vujudga keltirish choralari ko‘rildi. Buxoro Respublikasi rahbarlari ushbu masalaga: «Maorif kerak, chunki hech bir mamlakat, hech bir millat va hech bir inqilob maorifsiz yashamas, o‘qimok uchun mакtab kerak, maorif kerak kitob kerak-bular haqiqat»²-tarzida qaradilar.

BXSRning 10 nafar kishidan iborat hukumat tarkibi jadidlardan, asosan taraqqiyparvarlardan iborat bo‘lib, ular xalqni savodli qilish orqali jaholat va qoloqlik botqog‘idan xalos qilish mumkinligi to‘g‘risidagi orzu-umidlarining ro‘yobga chiqish vaqtি yetdi, deb hisobladilar. Ayni BXSR davrida aholidatexnik bilimlarni rivojlantirish, xo‘jalik yuritishni modernizarsiyalashtirish maqsadida chetdan texnika vositalari kirib keldi.

Ayniqsa BXSR hukumatining dastlabki yilida ishlab chikilgan va «Buxoro axbori» gazetasida BXSR maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov va mакtab sho‘basi mudiri imzosi ostida chop qilingan «Maktablar haqida umumiy qoidalar» («Qoidalar»)³ alohida ahamiyatga molik bo‘ldi.

Ushbu hujjat: «Umumiy qoidalar», «Ta’lim-tarbiya ishlariga oid», «Maktab idorasи xay’ati vazifasi», «Maktab sho‘rosining vazifasi», «Maktab xodimlari uchun kategoriylar» kabi bo‘limlardan iborat. BXSRda ta’lim tizimini zamonaviylari kirish ushbu “Qoidalari”dan boshlaydi.

¹ Абдурауф Фитрат Ҳиндистанда бир фарангি ила Бухороли мударриснинг жадид макtablari xусусида қилган мунозараси. Танланган асарлар; 1 жилд. Т.: Маънавият; 2000. - Б. 50.

² «Бухоро ахбори», 55-сон. 1921 йил, 18 ноябр. (Бекбой. «Маориф ишлари теграсида»). ("Бухоро ахбори", "Озод Бухоро" газеталаридағи материалларини тақдим этганлиги учун диссертант тарих фанлари номзоди, доцент К.Ж.Рахмоновга миннатдорчилик билдиради.

³ «Макtablar haqida umumiy qoidalar», «Бухоро ахбори», 1920 йил, 29 ноябр. 10-сон.

“Qoidalarda”, amirlik zamonida mavjud bo‘lgan eskicha ta’lim tizimini tubdan isloh kilish, aholini yoppasiga savodini chiqarish masalasi kun tartibiga quyiladi. Maktab ishlari haqidagi rejada: 8-16 yoshli bolalar uchun ibtidoiy (boshlang‘ich) maktablar ochish, savodsizlikni tugatish kurslari hamda muallim va murabbiylar tayyorlaydigan maxsus o‘quv yurtlarini tashkil etish ko‘zda tutiladi. Matbuot sahifalarida «Qoidalalar» e’lon qilinganidan keyin, bu jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Jumladan, boshlang‘ich maktablarda o‘kuv muddati 7-8 yil davom etishi qayd qilingan. Keyinchalik bu masalada munozaralar kuchayib ketadi. «Buxoro axbori» gazetasining bir qator sonlarida ushbu muddatni 4-5 yilga tushirish bilan bog‘liq takliflar bildirilgan. Maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov: «Buxoroning boshlang‘ich maktablarida o‘qish muddatini Bekboy («Buxoro axbori» muxbirlaridan biri) o‘rtoq 4 yil bo‘lsun deydur. Maorif nazorati bu masalani obdon qarab chiqib 6 va 7 yillik emas, boshlang‘ich o‘qish muddatini 5 yillik o‘laroq qabul kilgan edi»⁴ deb yozadi. «Qoidalalar»da eski maktablarni isloh qilish, yangi maktablar ishida madrasada ta’lim bergen muallimlardan foydalanib turish, qizlar maktablarini tashkil etish, bolalar bog‘cha va yaslilari ochish, ta’limning majburiyligini ta’minalash, o‘quvchilarni hukumat hisobidan bepul ovqatlantirish masalalari sanab o‘tiladi. «Qoidalalar»ning 1-bo‘lim 11-bandida: «Maktablarning har qaysisida tarbiya olmoq bilan birga, bolalar uchun mumkin bo‘lg‘on ravishda osh, choy, kiyim ham berilur»⁵ –deb yozilgan. Maktablarda bolalar sog‘ligini nazorat qilish uchun doimiy tibbiy nazorat ko‘rigini tashkil etishga diqqat-e’tibor qaratilgan.

Ta’lim-tarbiyada «bolalarni so‘qmoq, urmoq, jazo bermoq bitirilib, o‘git-nasihat, tanbeh, o‘rnak ko‘rsatish (ibrat-namuna)» usullarini qo‘llash qoidasi ko‘rsatilgan. Ta’lim «axloqiy, faniy, siyosiy (mafkuraviy)» ravishda bo‘lishi, har bir sinfdagi o‘quvchilar soni 30-35 tagacha qilib belgilanishi yozib kuyilgan⁶.

⁴ «Бухоро ахбори», 1921 йил 26 ноябр 56-сон. («Мубоҳаса» рукни. Кори Йўлдош. «Маориф ишлари тугрисида»).

⁵ «Мактаблар хакида умумий коидалар», «Бухоро ахбори», 10-сон. 1920 йил 29 ноябр.

⁶ Хайитов Ш. ва бошқалар. Бухоро халқ совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат ва маданий ҳаёт. Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2005 - Б. 72.

Yuqoridagi qaydlar hozirgi zamon ruhi bilan hamohang ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, ta’limning shakllari, ta’lim-tarbiya usullari, hatto bir sinfdagi o‘quvchilar soni kabilar zamonaviy ta’lim tizimi va jarayoni talablariga mos keladi.

Ushbu yillarida maorif ta’lim-tarbiyaning jonkuyar fidoiylari bo‘lgan F.Xo‘jaev, A.Fitrat, Q.Y.Po‘latov, Atoulla Xo‘ja, Said Ahroriy kabilar boy moddiy, ma’naviy madaniyatimizni rivojlantirish, o‘tmishdan qolgan ma’naviy boyliklarimizni asrash, kelajay avlodlarga yetkazishga o‘z kuch-qudratlarini bilim va salohiyatlarini sarfladilar. Moddiy ma’naviy madaniyatimizni rivojlantirish, zamon talablari darajasida ilmiy-texnik mutaxassislarga va ziyolilarga ega bo‘lish yo‘lida ibratomuz amaliy qadamlar qo‘yilgan edi.

1923-yilda maktab qurilishining yangi bosqichi boshlandi, bu kompleks qurilishga o’tish va dasturlarni sxematiklashtirish bilan belgilandi. “Ta’lim” so‘zi asta-sekin “ijtimoiy-siyosiy ta’lim” va “jamoat ongini tarbiyalash” tushunchalari bilan almashtirildi.

XX asr 30-yillari O‘zbekistonda xalq ta’limida keskin burilishlar amalga oshirilishi 1930 yilning 25-iyulida VKP(b)MKning «Umumiy boshlang‘ich majburiy ta’lim to‘g‘risida» gi qarori asosidagi O‘zbekiston SSR XKS ham 1930 yilning 23 avgustida «O‘zbekiston SSRda boshlang‘ich umumiy majburiy ta’limga o‘tish to‘g‘risida»gi 203 qarorlarning qabul qilinishi bilan bog‘liq. Bu qarorga ko‘ra, 1930-1931 o‘quv yilidan boshlab shaharlarda, fabrika va zavodlar joylashgan qo‘rg‘onlarda 8,9,10 yoshga yetgan bolalar, ommaviy va yoppasiga kollektivlashtirilgan rayonlarda sovet xo‘ja-liklari (sovxozi) va MTSlarda 8 yoshli bolalar ham umumta’lim mакtablariga qamrab olinishi kerak.

1931-1932-o‘quv yilidan boshlab esa 11 yoshli o‘smirlar ham majburiy boshlang‘ich ta’lim tarmoqlari bilan qamrab olinishi, turli sabablar bilan maktabga tortilmay qolgan 11-15 yoshli o‘smirlar esa 1 yoki 2 yillik tezlashtirilgan o‘quv kurslarida o‘qitilishlari kerak edi.

Ushbu yillarda Buxoroda ta’lim tizimi tom ma’noda o’zgardi. Maktab ta’limiga oid qator hujjatlar, qonunlar ishlab chiqildi. Ushbu qaror va qonunlar Buxoro maorifining o’zgarishiga debocha vazifasini bajardi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom I. T.: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 592 b.
2. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – T.: Akademikash, 2017. - 592 b.
3. Ahmadov O.Sh. Hamidov H.K. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIX – XX asrlar)//o‘quv qo‘llanma. – Buxoro. Kamolot nashriyoti. 2022-yil. 188 bet